

**BOLALARDA RAXIT VA SPAZMOFILIYA KASALLIGI***Tursunova Gulchiroy Olimovna**Zangiota Abu Ali Ibn Sino nomidagi j.s.t direktori*

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada bola rivojlanishida vitamin yetishmovchiligi muammolari (raxit kasalligi qiyosisa), sog'lom turmush tarzini shakllantirish, bola salomatligi yuzasidan duch kelinadigan muammolarga qarshi kurashish to'g'risidagi nazariy ma'lumotlar tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** D vitamini yetishmovchiligi, kalsiy, raxit tasnifi, perinatal markazlar, kasallik asoratlari, suyak to'qimasi, salomatlik, vitaminlar...

Hozirgi kunda dunyo bo'yicha uchraydigan kasalliklar turi juda ko'p. Bular orasida bolalar orasida uchraydigan raxit kasalligi xisoblanadi. Bu kasallikni oldini olish borasida butun dunyoda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan bizning yurtimizda sog'lom bola yurt kelajagi shiori ostida bolaning tug'ilgunicha va tug'ilgandan keyin ham kasalliklardan himoya qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xattoki onaning ham sog'lig'iga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Buning misoli safatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni bilan reproduktiv yoshdagi va homilador ayollar, bolalar uchun yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish, perinatal markazlarni zarur tibbiy texnika va buyumlar bilan jihozlash, ularni malakali kadrlar bilan ta'minlash vazifasi belgilandi.

**Raxit** — bu asosan go'daklar va yosh bolalar kasalligi bo'lib, kasallik davomida suyak to'qimasi va tishlar hosil bo'lishi jarayoni buziladi, shuningdek suyak mineralizatsiyasi yetishmovchiligi rivojlanadi. Ko'p odamlar raxitni shunchaki D vitamini yetishmasligi (kaltsiferollar) deb o'ylashadi, ammo aslida raxitning sabablari faqat shu bilan tugamaydi. Raxit paydo bo'lishining asosiy sabablaridan biri faol rivojlanish jarayonida fosfor va kalsiy moddalarining ham yetishmasligidir. Dastlabki xarakterli o'zgarishlar uzun suyaklarning so'nggi qismlarini rentgenografiyasida aniqlanadi.

Agar raxitni o'z vaqtida davolanishni boshlamasangiz, kasallik bir qator oqibatlarga olib kelishi mumkin:

- O'sish buzilishi;
- Skelet deformatsiyasi
- Tish nuqsonlari

- Konvulsiyalar
- Umurtqaning g'ayritabiiy egriligi

Raxitning asoratlari, masalan takroriy infeksiyalar paydo bo'lishi mumkin.

### ***Raxit patogenezi***

Raxitning patogenezi juda murakkab. Asosiy o'rin D vitamini gipovitaminoziga tegishli bo'lib, uning vazifasi kalsiy, fosforning ichakka singishi va suyak to'qimalarida cho'kishi, shuningdek buyrak tubulalarida kalsiy va fosfatning qayta so'rilishi jarayonlarini tartibga solishdan iborat.

Ushbu murakkab mexanizmda D vitamini o'zini terida ultrabinafsha nurlanish ta'sirida hosil bo'lgan yoki bola tanasiga oziq-ovqat bilan kiradigan birikma shaklida emas, balki konvertatsiya sodir bo'ladigan gidroksilaza kabi fermentlar ishtirokida jigar va buyraklarda faol metabolitlar shaklida namoyon bo'ladi. Tanadagi D vitamini ishlab chiqarilishining istalgan bosqichidagi buzilish mineral metabolizmning buzilishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, raxitning o'ziga xos bo'lmagan alomatlari mavjud bo'lib, ular o'ziga xos kasallik sifatida faqat mutaxassis tomonidan talqin qilinishi mumkin, ular — nevrologik va vegetativ o'zgarishlar. Agar chaqalog'ingiz bezovtalanadigan, kayfiyatsiz, asabiylashadigan bo'lsa, yomon uxlasa va tez-tez uyg'onsa, baland tovushlar va yorqin chiroqlar uni qo'rqitsa, ovqatlanish muammolari paydo bo'lsa (ishtaha pasayadi, emizikli bola sust emadi yoki umuman emishni rad etadi va ich qotishi kuzatiladi), chaqaloq juda tez terlashni boshlaydi (ter o'tkir va nordon hidga ega bo'ladi) va boshqalar. Ushbu belgilar bilan shifokorga murojaat qilish zarur. Raxitning dastlabki davrida suyak o'zgarishi xarakterli emas. Har qanday kasallikka qarshi kurashish rivojlanishining dastlabki bosqichida yaxshiroqdir.

Shuni ham yodda tutish kerakki, raxitning patogenezi nafaqat minerallar almashinuvining buzilishi, balki metabolizmning boshqa turlarining patologik muammolari bilan xarakterlanadi, bu ko'plab organlar va tizimlarning funksional holatiga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatadi. Bolalarda suyak tizimi shakllanishining tabiiy jarayonini buziladi.

### ***Raxit tasnifi***

Bolalardagi D vitamini tanqisligi bo'lgan klassik raxit bir necha tasnif prinsiplariga ko'ra bo'linadi, ularning asosiylari quyidagilar:

#### ***Kasallik davri:***

- Boshlang'ich;
- Kasallikning dolzarbligi;
- Sog'ayish;
- Qoldiq effektlar.

Ko'p yillar mobaynida raxitning asosiy sababi vitamin D tanqisligi deb hisoblangan. Lekin oxirgi yillarda qonda vitamin D metabo'litlari konsentrasiyasini aniqlash imkoniyati paydo bo'lgandan song D gipovitaminozi raxit rivojlanishi sabablaridan faqat biri ekanligi aniqlandi. Hozirgi vaqtda raxitning yetakchi sababi fosfatlar va kalsiy tuzlarining yetishmasligi, lekin bunda gipokalsiemiya qaraganda gipofosfatemiya ko'proq uchrashi va katta ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan. Erta yoshdagi bolalarda fosfat va kalsiy tuzlarining tanqisligi sabablari quyidagilar:

- Chala tug'ilish (homilaga kalsiy va fosfor tushishi homiladorlikning oxirgi oylarida ko'payadi)
- Noto'g'ri ovqatlantirish natijasida kalsiy va fosfor yetarli darajada organizmga tushmasligi;
- Intensiv o'sish davrida minerallarga bo'lgan talabning yuqoriligi (raxit - osayotgan organizm kasalligi)
- Oshqozon - ichak trakti, buyrak, suyaklar orqali fosfor va kalsiy transportining buzilishi, buning sababi organlar patologiyasi yoki ferment sistemasining yaxshi rivojlanmaganligidir.
- Nomuvofiq ekologik sharoit (organizmda xrom, stronsiy toplanishi, temir, magniy tanqisligi)
- Irsiy moyillik (misol uchun, ohil bolalar qiz bolalarga qaraganda, raxitni og'ir o'tkazadi, O (I) guruhdagi bolalar raxit bilan kam kasallanadi, A (II) guruhdagilar ko'proq kasallanadi)
- Endokrin buzilishlar (qalqonsimon bez va qalqonsimon bez oldi bezi funksiyasining buzilishi)
- Ekzo- va endogen vitamin D tanqislikligi.

Shuni ham yodda tutish kerakki, raxitning patogenezi nafaqat minerallar almashinuvining buzilishi, balki metabolizmning boshqa turlarining patologik muammolari bilan xarakterlanadi, bu ko'plab organlar va tizimlarning funksional holatiga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatadi. Bolalarda suyak tizimi shakllanishining tabiiy jarayonini buziladi.

**Spazmofiliya** (yun. Spasmos — tortishish va philia — moyillik), shaytonlash — qonda kalsiy miqdorining kamayishi natijasida paydo bo'lib, vaqtvaqtda shaytonlab qolish bilan kechadigan kasallik. Odatda, 2 yoshgacha bo'lgan bolalarda, ayniqsa bahorda ko'proq kuzatiladi.

Bolani yaxshi parvarish qilmaslik, noto'g'ri emizish, toza havoda kam olib yurish Sning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Kasallikning yashirin va ochiq shakli bor. Yashirin shakli bola nervining o'ta qo'zg'aluvchanligi bilan xarakterlanadi. Boshqa kasalliklar qo'shilganda, ayniqsa raxit zo'rayganda ochiq shaklga o'tadi, bunda har xil muskullarda tortishish va tirishish ro'y beradi. Ko'pincha bola chinqirib yig'laganda tovush yorig'i torayib, muskullari tortishib qoladi (spazm). Ba'zi bolalarda qo'l va oyoq

panjasi muskullarining tortishishi kuzatilib, bu bir necha soatdan bir necha kungacha cho‘zilishi mumkin.

Shaytonlash paytida bolaning hushdan ketishi Sning xavfli ko‘rinishidir. Dastlab bolaning rangi oqarib, yuz muskullari ucha boshlaydi, so‘ngra umumiy shaytonlash boshlanadi. Bolaning boshi orqaga tortib ketadi, og‘zidan so‘lak oqadi, lablari ko‘karadi, nafasi o‘zgaradi, beixtiyor siyib yuboradi va ichi ketadi. Talvasa bir kunda bir necha marta tutib, har safar 20—30 min.gacha davom etishi mumkin. Odatda, bolada xurujdan so‘ng hech qanday asorat qolmaydi. Ayrim hollarda nafas yoki yurak faoliyatining to‘xtab qolishi natijasida o‘lim ro‘y berishi mumkin.

Bolada tirishish paydo bo‘lishi bilan vrach chaqirish lozim. Bolaning nafas olishi qiyinlashsa, vrach kelguncha unga toza havo yoki kislorod yostig‘idan kislorod berish kerak. Xuruj paytida bola ba‘zan tilini tishlab oladi yoki tili nafas yo‘lini to‘sib qo‘yadi, shuning uchun bint bilan tilni tortib turgan ma‘qul. S.ning oldini olishda bolani to‘g‘ri parvarish qilish, vrach tavsiya etgan parhez taomlar bilan ovqatlantirish, toza havoda olib yurish katta ahamiyatga ega.

**Kuzatuv natijalari.** Olib borilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, raxit kasalligiga chalingan bolalarning bunday bo‘lishiga sabab, ko‘pida onaning sifatsiz ovqatlanishi, kalsiysiz oziqalarni iste‘mol qilganligi, muxit sharoiti ham kuchli ta‘sir qilganini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari sun‘iy ovqat iste‘mol qilgan onalardi bolalarida raxit kasalligi ko‘p uchraganini kuzatdik.

### Xulosa

Shuningdek, yosh onalar buni yodda tutishlari kerak: aralash va sun‘iy oziqlangan bolalarga qaraganda emizikli bolalarda raxit bilan kasallanish ehtimoli kam (onaning tanasida sog‘lom metabolik jarayonlar mavjud). Aralash va sun‘iy oziqlangan bolalarda raxit rivojlanishi xavfi ancha yuqori. Ularda huningdek kasallikning kechishi ancha og‘ir bo‘ladi. Shu o‘rnida shuni aytish kerakki, xar bir oila sog‘lom bola dunyoga keltiraman desa uni onaning qornida rivojlanish davridanoq boshlash kerak. Bunda bolaga ijobiy ta‘sir qiladigan vitaminli ovqatlar ko‘proq iste‘mol qilishi ayniqsa kalsiy elementiga boy bo‘lgan tabiiy taomlar, mevalar shunga o‘xshash narsalar ko‘proq tanavul qilish kerak. Tug‘ilganidan so‘ng quyosh nuri ostida ko‘proq sayr qilish ko‘proq sut maxsulotlari iste‘mol qilish, o‘z vaqtida shifokor ko‘rigiga olib borib katta qilishlarini tavsiya qilib qolamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://yuz.uz/uz/news/2022-2026-yillarda-onalik-va-bolalikni-muhofazaqilishni-kuchaytirish-togrisida>
2. <https://avitsenna.uz/raxit/>
3. B. Qoraxo‘jayev va boshqalar “ Bolalar kasalliklari propedivtikasi” Tosh-2006
4. Daminov T.A., Xalmatova B.T. Boboyeva U.R. “Bolalar kasalliklari” Tosh2012
5. Kuzatuv natijalari